

ZARDUSHTIYLIKNING MUQADDAS KITOBİ “AVESTO”DA MADANIYAT MASALASI

**Xadjamuratova Matlyuba Xoshimovna - tarix fanlari doktori, professor
Alfraganus universiteti, O‘zbekiston**

Annotatsiya

Maqolada zardushtiylikning muqaddas kitobi “Avesto”da yoshlarni bolalikdan sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish orqali ular ongida madaniyatning turli qirralari, ya’ni siyosiy, huquqiy, mehnat, iqtisodiy, tibbiy, diniy, ahloqiy madaniyat qirralarini shakllantirish masalalari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: zardushtiylik, Avesto, ezgulik, yoshlar, ta’limot, madaniyat, mehnat

ВОПРОС КУЛЬТУРЫ В СВЯЩЕННОЙ КНИГЕ ЗОРОСТЕЗИЯ «АВЕСТО»

**Хаджамуратова Матлюба Хошимовна - Доктор исторических наук,
профессор**

Университет Альфрагануса, Узбекистан

Аннотация

В статье рассматриваются вопросы формирования в сознании молодежи различных аспектов культуры, а именно политической, правовой, трудовой, экономической, медицинской, религиозной, нравственной, путем ориентации ее с детства на здоровый образ жизни, на основе священной книги зороастризма “Авеста”.

Ключевые слова: зороастризм, Авеста, доброта, молодежь, образование, культура, труд

THE ISSUE OF CULTURE IN THE HOLY BOOK OF ZOROASTISM “AVESTO”

**Khadzhamuratova Matlyuba Khoshimovna - Doctor of Historical Sciences,
Professor**

Alfraganus University, Uzbekistan

Annotation

The article examines the issues of formation in the consciousness of young people of various aspects of culture, namely political, legal, labor, economic, medical, religious, moral, by orienting them from childhood to a healthy lifestyle, based on the sacred book of Zoroastrianism "Avesta".

Keywords: Zoroastrianism, Avesta, goodness, youth, education, culture, labor

Kirish. Yoshlar ongida madaniytning turli qirralarini shakllantirishda Markaziy Osiyo xalqlariga xos qahramonlik afsonalari hamda zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto" fundamental metodologik asos vazifasini bajarib kelgan.

Jamiyat taraqqiyoti, yoshlar kamoloti borasida – "Ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amalni olqishlayman. Fikr, soʻz va amal olamidan ezgu fikr, ezgu soʻz va ezgu amalni tanlayman. Men barcha yomon fikr, yomon soʻz va yomon amaldan yuz buraman[1]", – degan purmaʼno gʻoya ilgari surilib, asrlar davomida insonlarni ezga maqsad sari chorlab kelgan "Avesto" hozirgi zamon uchun ham gʻoyat ahamiyatlidir.

Natijalar va muhokama. Zardushtiylik taʼlimotida yoshlarni jamiyatga tayyorlash, ularni hayotning ilgʻorroq bosqichlariga koʻtarish kabi tashabbuskor yondoshuv gʻoyalari ilgari surilgan. Ushbu gʻoyalarni hayotga tadbqiq etish yoʻnalishlari qonun-qoidalar asosida qatʼiy belgilangan. Avvalo, murgʻak qalb egasi tugʻilgan makonda oʻrnatilgan turmush madaniyatiga kuzatish, anglab yetish orqali koʻnikib borgan.

Bolalikdan sogʻlom turmush tarziga yoʻnaltirish orqali yoshlar ongida madaniyatning turli qirralari shakllantirilgan. Natijada ularda tarixiy javobgarlik masʼuliyati ham namoyon boʻla boshlagan. Zardushtiylik taʼlimotida yoshlarni siyosiy madaniyatni shakllantirish nazariyasi ham ilgari surilgan.

Olam obodligi uchun gʻayrat koʻrsatmoq lozim, uni yaxshilik bilan asramoq va yorugʻlik sari eltmoq kerak[1] – deyiladi "Avesto"da. Yovuzlik, bosqinchilik, talonchilik, adolatsizlikka qarshi birdamlik, ahillik bilan kurashib, tinchlik va

totuvlikni saqlash orqali jamiyat taraqqiyoti, farovonligiga erishish mumkinligi bayon etilgan.

Insonlarni bir-biriga g'amxo'rlik qilish, yoshlarni tarbiyasi, kamoloti haqida qayg'urish asnosida jamiyat kelajagini ta'minlashga yo'naltirilgan ezgu g'oyalar zardushtiylik ta'limotida o'z ifodasini topgan. Shu orqali odamlarda bunyodkor g'oyalarga nisbatan xayrixohlik, vayronkor g'oyalarga nibatan nafrat hissi kuchayib borgan.

"Avesto"da – yaxshilik olami xukumdorining amr-irodasi bilan qishloq va xonumonlarda ayollar va erlar sha'niga qo'shiqlar yangragaydir[1], – deb, jamiyat a'zolarining har tomonlama farovonligini ta'minlash choralari bayon etilgan.

Zardushtiylik ta'limotiga ko'ra, sernufuz va homilador ayollar jamoa tomonidan ijtimoiy himoya qilingan. Ko'p bolali oilalarga davlat hisobidan nafaqa tayinlash lozimligi qayd etilgan, biryo'la 2-3 ta tuqqan ayollar mukofot olishga sazovor, deb uqtiriladi[2]. Go'dakni onasi qornida o'lib ketmasligi uchun asrab-avaylashga da'vat qilingan. Yoshlar jamiyatda o'rnatilgan mavjud qonun-qoidalarni o'rganishi, unga rioya qilishi zardushtiylik ta'limotida ham belgilangan. Huquqiy madaniyatni shakllantirilishi zo'ravonlikka, o'zboshimchalikka ma'lum darajada chek qo'yib, jamiyat farovonligiga yo'l ochib berishi uqtirilgan.

Mehnat madaniyatini ulug'lash "Avesto"da inson tarbiyasida asosiy qoidalaridan biri bo'lgan. Mehnat ulug'langani bois yoshlarda mehnat qilish orqali amaliy ko'nikmalar ortib borishi bu sohada bilim, tajribalar to'planishiga, turli sohalarni takomillashishiga turtki bergan.

Mehnat madaniyati – yoshlikdan shakllanadi. Mehnat har bir qo'lga kiritilgan muvaffaqiyatning garovi, irodani mustahkamlanishi, aqlni charhlanishi, ma'lum kasb-korlikni egallash, intelluktual salohiyatga erishish mehnat orqali qo'lga kiritiladi. Shuningdek, har bir sohani o'rganish, talablarga vijdonan rioya qilish, ma'lum yutuqqa erishish mehnat madaniyati orqali amalga oshadi.

Zardushtiylik ta'limotida yoshlar orasida bir-biriga so'z berish, shartlashish ortida katta mas'uliyat yuklanishi bayon qilingan. Inson jamiyatda yashar ekan,

albatta atrofdagilar bilan ish, xizmat yoki boshqa masalalar yuzasidan kelishib olishi, bir-birini ishontirib, shartlashishi, ma'lum bir ehtiyojlarni qondirishi tabiiy hol. Mas'uliyatni his qilmaslik, va'dani bajarmaslik orqali ikkinchi tomonning zarar ko'rishini oldini olish choralari mustahkamlangan.

Ey Mazda! Men seni ardoqlayman va sendan o'tinaman: ishonchsizlik o'rtadan ko'tarilsin. Qarindosh-urug'lar kaltafahmlilikdan; hamkorlar yaqinlar aldovidan; do'st-yorlar fitna ahlidan omonlikda bo'lib, olam yomon rahbarlardan xalos bo'lsin[1], – deya xitob bilan, yoshlarni ishonchsizlik, sustniyatlik, aldov, fitna, o'zganing haqqiga xiyonat qilish kabi buzg'unchi g'oyalardan yiroq bo'lishga, ularga qarshi ogoh bo'lishga, har qanday ishga doimo hushyorlik bilan kirishishga chorlaydi.

Shuningdek, ta'limotning to'rtinchi Fargard, birinchi bo'limida, – kimda-kim qarzni o'z egasiga qaytarmasa, uning bu amali o'sha omonatni o'g'irlagan bilan barobar bo'ladi. Qarz olgan kishi omonatni uyida saqlasa, har kun va har tun unga qo'l ursa va o'ziniki, deb gumon qilsa, uning bu amali omonatni ikkinchi marta o'g'irlagan bilan barobardir[1], – deyilgan. Bunga ko'ra, yoshlar bir-birini ishonchini suiste'mol qilmaslikka, subutsizlikka, va'daga vafo qilmaslikka, aldamchilik, so'zida turmaslik kabi jamiyatdagi qusurlarga yo'l qo'ymaslikka da'vat qilingan.

Zardushtiylik ta'limotida yoshlarni xulq-atvori shakllanishida axloq muhim o'rin tutishini inobatga olinib, ularning tarbiyasida axloqiy fazilatlarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. Ezgulik va yovuzlik, halol va harom, savob va gunoh kabi axloqiy tushunchalarni yoshlar ongiga murg'aklik chog'idanoq singdirish bilan, ularda salbiy holatlarga nisbatan nafrat hissi uyg'onadi. Yillar davomida shu asnoda insoniylik xususiyatlari, axloqiy fazilatlar jamiyat urf-odatiga aylanib, axloqiy madaniyat qaror topishiga zamin yaratiladi.

Ozodalikka intilish, diniy marosimlarni o'tkazishda ishlatilgan idishlarni yuvib, saranjom-sarishta qilish ham zarur edi. Chunki ozodalik, tozalik turli-tuman ifloslik va yomonliklardan kishini asraydi, deb tushunilgan.

Zardushtiylik ta'limotida yer, suv, havo va olov muqaddas sanalgan. Jumladan, – tabiat muhofazasi va muhit tozaligini saqlash, turli kasalliklarning tarqalishining oldini olish maqsadida sanitariya-gigiyena qoidalari amalga oshirilgan: axlatlarni bekitish, ifloslangan joylarni tuproq, tosh, kul bilan ko'mib tashlash; olov, issiqlik va sovuqlik yo'li bilan kiyim-kechaklar va oziq-ovqatlarni zararsizlantirish, kul, sirka, sharob, turli giyohlar tutatish[3] tavsiya etilib, sog'lom turmush tarzi targ'ib qilingan.

Zardushtiylik ta'limotida jamiyatda pedagogik madaniyatni shakllantirishga alohida e'tibor qaratilgan. "Tarbiya, – deyilgan "Avesto"da, – hayotning eng muhim (tayanchi) tirgagi bo'lib hisoblanishi lozim. Har bir yoshni shunday tarbiyalash zarurki, u avvalo yaxshi o'qishni va so'ngra esa yozishni o'rganish bilan eng yuksak pog'onaga ko'tarilsin"[4].

Xullas, zardushtiylikning muqaddas kitobi "Avesto"da yoshlarni bolalikdan sog'lom turmush tarziga yo'naltirish orqali ular ongida madaniyatning turli qirralari, ya'ni siyosiy, huquqiy, mehnat, iqtisodiy, tibbiy, diniy, ahloqiy madaniyat qirralarini shakllantirish masalalari ilgari surilgan.

ADABIYOTLAR

1. "Авесто" тарихий-адабий ёдгорлик. – Тошкент: Шарқ, 2001. – 34, 55, 32, 15, 116- бетлар.
2. Ҳомидов Ҳ. "Шохнома"нинг шуҳрати. – Тошкент: Ўзбекистон, 1991. – Б. 92.
3. Ҳасанов С. "Авесто" – ҳуқуқ манбаи. "Мулоқот", 1999, 1-сон, – Б. 50. // "Авесто" тарихий-адабий ёдгорлик. – Тошкент: Шарқ, 2001. – Б. 364.
4. Сапаров Б.Б., Сапаров А.Б. Авестода одоб-ахлоқ масаласи. – Б. 896-897. // <https://cyberleninka.ru/article/n/avestoda-odob-ahlo-masalasi>